

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Boyqo'zieva	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari	230
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini metodik kompetentligini axborotlashgan ta'lim muhitida takomillashtirish	234
G.Z.Ganiyeva	
Ingliz tilidagi toponimlarni izohlashda leksikografik tamoyillar (buyuk britaniya va amerika joy nomlari lug'atlari misolida)	238
Z.K.Abidova	
Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish	244
R.I.Madaliyev	
Talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirish texnologiyasi	248
M.X.Baybaeva, I.A.Imomov	
Talabalarning xulq atvoridagi nizoli vaziyatlarni pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmasining talqini	252
I.A.Imomov	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili	256
L.M.Sokolova	
Farg'ona vodiysi hunarmandlari postindustrial dunyoda	261
S.O'Boybo'riyeva	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari	268
Sh.X.Xankeldiyev, D.K.Karimov	
Yosh akrobatlarning xarakter-texnik tayyorgarligi metodologiyasining kumulyativ samaradorligini o'rganish	272

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari	277

FALSAFA

Z.A.Boboyeva	
San'atning badiiy adabiyot turi uzluksiz ma'naviy tarbiyaning muhim omili	283
I.A.Xo'jaxonov	
Huquqiy targ'ibot jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni	288
U.M.Mamajonov	
Musiq madaniyati darslarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirishning muhim shartlari	293
M.B.Yuldasheva	
Biolog talabalarni kasbga yo'naltirilgan yondashuv orqali til o'qitish bo'yicha taklif	298
B.M.Qandov	
Global ekologik muammolar: shaxs dunyoqarashi va milliy qadriyatlari tizimidagi o'zgarishlar	302
O.T.Berkinov	
Kibermakonda mavjud o'ziga xos tahdidlar	308
I.Ismoilov	
Jinoyatga jazo tayinlashga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	311
A.A.Sayitxonov	
Milliy qadriyatlar– ma'naviy tarbiyaning mafkuraviy asosi	316
Z.O.Muminova	
Tafakkur tarzi va jamiyat mafkuraviy tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri	320
A.A.Isomiddinov	
Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari	324

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI
OMILLARNING XUSUSIYATLARI**

**ХАРАКТЕРИСТИКА ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА
И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

**CHARACTERISTICS OF FACTORS AFFECTING DEVELOPMENT OF SMALL
BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP**

Bozarov Xayrullo Xayitbayevich

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanishi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmuni va mohiyatiga yondashuvlar nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Shu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilgan.

Аннотация

В данной статье теоретически исследованы подходы к содержанию и сущности малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях бурного развития экономических отношений. При этом изучаются основные факторы, влияющие на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства.

Abstract

This article theoretically examines approaches to the content and essence of small business and private entrepreneurship in the conditions of rapid development of economic relations. At the same time the main factors influencing the development of small business and private entrepreneurship are studied.

Kalit so'zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, bandlik, talab omillari, taklif omillari, ekstremal omillar, internal omillar.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, экономический рост, занятость, факторы спроса, факторы предложения, внешние факторы, внутренние факторы.*

Key words: *small business, entrepreneurship, economic growth, employment, demand factors, supply factors, external factors, internal factors.*

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotda innovatsiyalarni jadallashtirish, xalqaro bozorda raqobatdosh mahsulotlarni yaratish hamda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish mamlakat va uning mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bunda rivojlanishning asosiy mezonlari bo'lib, YIM, mahsulot eksport hajmi, ish bilan bandlik darajasi, aholi jon boshiga to'g'ri kelgan daromadlar xizmat qiladi. Bu o'rinda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazkur ko'rsatkichlardagi yuqori ulushga egaligi sohaning muhimligini ifodalaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq chora-tadbirlar natijasida aholi daromadlari ortib, ish bilan bandlik darajasi o'smoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish ko'lami va tovar hamda xizmatlarning turi kengaymoqda. Milliy bozorlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlari ulushi kengaymoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omili bo'lib, mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni samarali yechish imkonini beradi. Mazkur sohani kengaytirish aholi daromadlari o'sishigina emas, balki mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy hamda ijtimoiy salohiyati o'sishini ham ta'minlab beradi. Qator xorijiy mamlakatlar tajribasini ko'rsatishicha kichik biznesning rivojlanishiga oid mezonlar iqtisodiyotda asosiy ulushlarga ega.

Yevropa mamlakatlarida kichik va o'rta biznesning YIMdagi ulushi 60 foizdan, ish bilan bandlardagi ulushi 65-70 foizdan hamda qo'shilgan qiymatdagi ulushi 50 foizdan yuqori. Shuningdek, Xitoyda 4,3 mln. dona kichik va o'rta biznes korxonalari hamda 27,9 mln. dona yakka tartibdagi tadbirkorlik mavjud bo'lib, shahar aholisining 75 foizi bandligini ta'minlaydi [1, 54-68-b].

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, mamlakatni barqaror rivojlantirishda kichik va o'rta biznesning ahamiyati yuqoridir. Chunki, mazkur soha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mazkur soha iqtisodiyotda cheklangan resurslardan foydalanib, cheklanmagan ehtiyojlarni qondirishdek, iqtisodiyotning fundamental masalasini hal qiladi.

Shu o'rinda, kam xarajat va moliyaviy mablag'lar hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratilishi kichik biznesning ijobiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida ham kichik biznes ko'lamining yuqoriligi, tez realizatsiya bo'luvchi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga moslashuvchanligi bozor sharoitiga mos xususiyat kasb etadi. Shuningdek, mamlakatda yaratilgan qulay shart-sharoit natijasida esa tadbirkorlik yanada rivojlanib, kengayib bormoqda. Uning iqtisodiyotdagi ko'lami o'sib, soha va tarmoqlardagi ulushi ortmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlikni yanada kengaytirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Demak, milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko'lamini kengaytirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ortishiga hamda barqaror rivojlanishiga olib keladi. Iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri – ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning real qiymatini oshirish hisoblanadi. Kichik biznes kam investitsiya talab qilishini hisobga olsak, ushbu soha innovatsiyani kengaytirish hamda tarkibiy o'zgarishlar sifatini oshirishda ham alohida o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqoridagilarga muvofiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining ilmiy-nazariy jihatlariga hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlariga to'xtalib o'tishni talab etadi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatining eng kichik va boshlang'ich subyekti oilaviy tadbirkorlik hisoblanadi. Shu bois, dastavval mazkur tushunchaning ilmiy-nazariy hamda huquqiy jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Jumladan, qonun hujjatlarida "oilaviy tadbirkorlik" oila a'zolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir, deb belgilangan [2]. Shuningdek, mazkur hujjatda quyidagi jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan: oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi; oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin; yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir; yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi oilaviy tadbirkorlik qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

R.Kantilon, Y.Tyunen, J.B.Sey kabi mumtoz iqtisodchilar fikricha, tadbirkorlik o'ziga tavakkalchilikni oluvchi shaxs hisoblanadi. A.Smit tadqiqotlarida tadbirkorlik kapital egasining tijoriy g'oyasi asosidagi foyda olishi nazarda tutilgan. Shuningdek, muallif tadbirkor o'z manfaati yo'lidagi faoliyati natijasida o'zgalarning moddiy ehtiyojlarini qondirishiga to'xtalib o'tgan. P.Druker bergan ta'rifga ko'ra, tadbirkor bu kapital egasi sifatida yuqori daromad izlab imkoniyatini ishga soluvchi shaxs, deya ta'kidlanadi [3].

Y.Shumpeter fikricha, tadbirkor bu tavakkalchilikni o'z bo'yniga oluvchi shaxs bo'lib, ixtiro va yangiliklar asosida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga texnika-texnologiya omili asosida berilgan ta'riflar ichida Y.Shumpeterning izlanishlari alohida o'rin tutadi. Muallif fikricha, tadbirkor bu yangiliklar tashabbuskori, innovator hisoblanadi, deya ta'rif berilgan. Y.Shumpeter fikricha, mulk yoki kapitalning mavjudligi tadbirkorlik uchun asosiysi emas, balki uning ustuvor jihati ixtirochilik hamda tashabbuskorlikdir [4].

Yuqoridagi tadqiqotlari qatorida, kapital omiliga, investitsiyalarga hamda davlatning qo'llab-quvvatlash faoliyatiga e'tibor qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Bunday tadqiqotlar ichida, J.M.Keynsning izlanishlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, uning fikricha, faollik va riskning mavjudligi tadbirkorning o'ziga xos xususiyati. Shunday bo'lsa-da, tadbirkorlik faoliyati doim barqaror rivojlanmaydi, shu bois, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash talab etiladi [5].

Tadbirkorlik va kichik biznes bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda zamonaviy izlanishlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, kichik biznes tushunchasiga zamonaviy adabiyotlarda ishchi-xodimlar hamda aylanma mablag'lari hajmiga bog'liq ta'riflar ko'plab uchraydi. Xususan, I.Y.Zagoruyko fikricha, kichik biznes bu cheklangan ishchilar faoliyat yuritadigan hamda hududiy jihatdan sezilsiz ko'lamga ega shaxs [6].

Bir guruh tadqiqotchilar fikricha, kichik biznes bu iste'mol kooperativlari va tijorat tashkilotlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar hamda fermer xo'jaligi subyektlaridir. Uning o'ziga xos jihatlaridan biri – turli davlatlarda qonunchilik asosida ish bilan bandlar soni orqali tavsiflanadi [7, 67-71-b].

Shuningdek, kichik biznesni nisbatan keng tarzdagi ta'riflari ham mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishda nafaqat ko'lam, balki uning faoliyat turlariga ham e'tibor qaratilgan. A.N.Alisov tomonidan berilgan ta'rifda kichik biznes – resurslardan nisbatan samarali foydalanib,

IQTISODIYOT

innovatsiyalarga asoslangan holda tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondirish asosida foyda oluvchi tadbirkorlik subyektidir [8].

Mamlakatimiz olimlari, K.Karimova va K.Sharifxodjayevalar fikricha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy faoliyatning fundamental asosi, davlat rivojlanishida eng muhim katalizatorlardan biridir [9].

Kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha berilgan ta'riflarni umumlashtirish asosida mualliflik ta'rifini keltirib o'tamiz. Kichik biznes subyekti bu qonunchilik asosida belgilangan ishchi-xodimlarning cheklangan soniga ega, bozordagi ko'lami yuqori bo'lmagan tavakkalchilikni zimmasiga olib foyda olish maqsadida faoliyat yurituvchi shaxs. Tadbirkorlik esa mulkchilik turi va hajmidan qat'iy nazar qonunchilik bilan taqiqlanmagan holda faoliyat olib boruvchi hamda foyda ko'ruvchi shaxs hisoblanadi. Biznes esa egasiga foyda keltirish maqsadida tashkil qilingan va jamiyat moddiy hamda ma'naviy manfaatlariga xizmat qiladigan faoliyat turi va predmeti hisoblanadi. Bunda, qonunchilik doirasida ruxsat berilgan ish, faoliyat turlarini e'tiborga olamiz. Shunday bo'lsa-da, mazkur tushunchalarning, xususan, kichik biznes va tadbirkorlikning muhimlik darajalaridan biri – faoliyati natijasining rivojlanishi hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kichik biznesning rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqotlar negizida asosiy e'tibor sohaning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga qaratiladi. Shuningdek, sohani rivojlanishi bilan bog'liq tushunchalarga berilgan ta'riflarda ham mazkur yo'nalishga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, kichik biznesning rivojlanishi davlatning iqtisodiy siyosati bilan bog'liq bo'lib, unga tegishli faoliyatning kengayishi hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator olimlar izlanishlarida iqtisodiy ko'lamiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yo'nalishdagi izlanishlarda xorijiy olimlar asosiy e'tiborni iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi bilan bog'laydilar.

Bir guruh izlanuvchilar fikricha, kichik biznesni rivojlanishi bu sohaning milliy iqtisodiy tizim ko'rsatkichlaridagi ulushining ijobiy siljishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznesning omilli jihatlariga muvofiq ta'riflar ham mavjud. Jumladan, N.I.Sultonova fikricha, kichik biznesning rivojlanishi moliyaviy mezonlar bilan bog'liq bo'lib, uning o'zgarishlari asosida belgilanadi. B.Yusupov ta'rifida esa, makroiqtisodiy jihatdan yondashuv amalga oshirilgan bo'lib, kichik biznes rivojlanishi - iqtisodiy salohiyatni oshirish va undan to'liq foydalanishdir, deya ta'kidlanadi.

R.R.Versoskiy tadqiqotlarida kichik biznes faoliyati barqarorligini davlat dasturlari hamda kadrlar salohiyati bilan bog'lagan. U tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bu uning kadrlar salohiyati oshishi asosida asosiy faoliyat natijalarining o'sishi hisoblanadi. Muallif mazkur ta'rif orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mehnat munosabatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'laydi. Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ta'riflar ham keng tarqalgan bo'lib, B.Shermuhammedov va M.Mirvaliyevlar fikricha, kichik biznesning rivojlanishi bu ish bilan bandlik darajasining ortishi va aholi daromadlarining o'sishi asosidagi natijaviy jarayon hisoblanadi.

Yuqorida amalga oshirilgan tadqiqotlarni ko'rsatishicha, kichik biznesni rivojlanishi bilan bog'liq qarashlar negizida asosiy e'tibor iqtisodiyotning u yoki bu mezonlaridagi sohaning ulushi o'zgarishi nazarda tutilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka rivojlanish bo'yicha qarashlar va yondashuvlar

Mualliflar	Qarashlar va yondashuvlar
A.Soy	Kichik biznesning rivojlanishi davlat tomonidan amalga oshirilgan qo'llab-quvvatlash natijasida amalga oshib, ko'laming o'zgarishi bilan beligalandi
E.S.Kozma	Kichik biznesni rivojlanishi – iqtisodiy-ijtimoiy mezonlardagi kichik biznes faoliyati ko'laming o'zgarishidir
V.G.Basareva	Kichik biznes rivojlanishi bu sohaning hudud iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlaridagi ulushining o'zgarishi, deb ta'rif berilgan
G.K.Sherova Siximbayev M.R. Siximbayeva D.R.	Kichik biznesni rivojlanishi bu sohaning milliy iqtisodiy tizim ko'rsatkichlaridagi ulushining ijobiy siljishlari hisoblanadi
N.I.Sultonova	Kichik biznesning rivojlanishi moliyaviy mezonlar bilan bog'liq bo'lib, uning

	o'zgarishlari asosida belgilanadi
B.Yusupov	Kichik biznes rivojlanishi – iqtisodiy salohiyatni oshirish va undanto'liq foydalanishdir
R.R.Versoskiy	Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bu uning kadrlar salohiyati oshishi asosida asosiy faoliyat natijalarining o'sishi hisoblanadi
B.Shermuhammedov, M.Mirvaliyev	Kichik biznesning rivojlanishi bu ish bilan bandlik darajasining ortishi va aholi daromadlarining o'sishi asosidagi natijaviy jarayon hisoblanadi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish avval ta'kidlaganimizdek, har qanday iqtisodiy tizimning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, ushbu sohani rivojlantirishda har bir mamlakat o'zining xususiyatiga mos yo'lni tanlashi lozim. Hatto, mintaqalar ham o'z xususiyatidan kelib chiqib rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Buning asosiy sabablaridan biri – omil va manbalarning notekis taqsimlanganligidir. Shu bois, sohani kengaytirish, uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish uchun omillariga alohida e'tibor qaratamiz. Buning uchun, kichik biznesning omil va manbalarini ilmiy-nazariy jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun ta'sir qiluvchi omillarni dastlabki yondashuvda an'anaviy tarzda qarab o'tamiz. Jumladan, sohaga ta'sir qiluvchi omillar sifatida taklif, talab va taqsimot omillarini tadqiq qilamiz.

Taklif omillari qatoriga xomashyo va tabiiy resurslar, mehnat, kapital va tadbirkorlik qobiliyati kiradi. Xomashyo muhim bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda kichik biznesni ixtisoslashuvini belgilaydi. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik xomashyo va kapitaldan samarali foydalanib, tovar va xizmatlar yaratishni ta'minlaydi. Kichik biznesni barqaror rivojlanishida investitsiyalar bilan ta'minlanganlik muhim hisoblanadi. Ular kichik biznesning asosiy va aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligini hamda sifatini belgilab beradi. Tadbirkorlik qobiliyati mavjud omillarni samarali yaxlitligini ta'minlab, iste'molga mos tovar va xizmatlar turidan maqbulini ishlab chiqarishni amalga oshiradi.

Talab omillari qatorida asosiy e'tibor bozor bilan bog'liq manbalarni o'rganishga qaratiladi. Jumladan, uning asosida iste'mol xarajatlari, investitsion talab hamda tashqi bozor talablari o'rganiladi. Mazkur omilning muhimligini iqtisodiyotdagi fundamental masalalardan hisoblangan "kimga?", "nimani?", "qancha?" kabi savollarga yechim topishi bilan izohlaymiz. Taqsimot omillari tarkibida institutsional masalalar yotadi. Bunda mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat o'rganiladi. Mazkur omil talab va taklifning samarali taqsimotini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni o'z ichiga oladi. Shunday bo'lsa-da, bir qator olimlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tadqiq etishda yuqoridagi u yoki bu omillarni o'z ichiga oladi.

Jumladan, A.Y.Chepurinko, L.I.Yevaleno kabilarda kichik biznesning rivojlanishiga mehnat omilining ta'siri yuqori ekanligini ta'kidlashgan [10, 1070-1078-b]. Shuningdek, L.I.Yevaleno izlanishlarida kichik biznesning rivojlanishini miqdoriy jihatlarida sohadagi ish bilan bandlikning o'zgarishi kuchli ta'sir qiluvchi omil ekanligi aniqlangan. Mazkur omil nafaqat kichik biznes uchun balki, ko'lamidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyati uchun muhimdir. Ushbu omil miqdoriy jihatdan yangi ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'lsa-da, uning fikr-mulohazalari natijasida tadbirkorlik kengayadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan bog'liq tadqiqotlarda nisbatan keng izlanishlar ichida omillarni ikkiga, eksternal va internal turlarga ajratilgan. Tashqi yoki eksternal omillar tashqi muhit bilan bog'liq mezonlar asosida tadqiq etiladi. Ichki yoki internal omillar esa sohaga tegishli manbalarni o'z ichiga oladi. Mazkur tasniflash belgisi bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlarni tizimlashtiramiz.

Jumladan, bir guruh olimlar fikricha, kichik biznes rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni ikki guruhga – ichki va tashqi turlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ichki omillarga, tadbirkorlik ixtiyoridagi ichki muhit manbalari hisobga olinsa, tashqi omillar sifatida iqtisodiy, ijtimoiy-demografik, huquqiy, siyosiy, ilmiy-texnika, xalqaro, tabiiy-iqlim sharoiti kabilarda qaraladi. Shunday bo'lsa-da, ichki muhit omillari asosiy bo'lib, ular o'z ichiga ta'minotchilar, iste'molchilar, institutsional-tashkiliy, davlatning qo'llab-quvvatlash tizimi, raqobat, infratuzilma kabilarni qamrab oladi.

K.A.Omarova tadqiqotlarida ham kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar ikkiga – ichki va tashqi turlarga bo'lib o'rganilgan. Muallif masalaga boshqaruv jarayoni

IQTISODIYOT

nuqtayi nazaridan yondashgan bo'lib, ichki omillarni boshqaruv maqsadi bilan bog'lasa-da, tashqi omillariga kengroq to'xtalib o'tgan. Jumladan, tashqi omillarga tabiiy-iqlim, institutsional, siyosiy, demografik, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy manbalarni kiritgan.

Shu bilan birga, A.Xosking ham kichik biznes omillarini ichki va tashqi mezonlar asosida o'rgangan bo'lsa, I.N.Gerchikova tashqi manbalarni ikkiga, to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi omillar hamda bilvosita ta'sir qiluvchi omillarga bo'lgan. Birinchi guruhga quyidagilar kiritilgan: bozor munosabatlarining holati va tavsifi; iste'mol xarajatlari; taklif; bozordagi savdo sharoiti; firmalarning xo'jalik aloqalari; xomashyo va materiallar yetkazib beruvchi tarmoqlar holati; ishchi kuchining malaka ko'nikmaga egaligi; moliya institutlari va kredit tashkilotlari bilan aloqalar. Ikkinchi guruhga, ya'ni bilvosita omillarga quyidagilar kiritiladi: tadbirkorlik faoliyatining tartibga solish; ilmiy-tadqiqot ishlanmalari va ularning holati; mamlakat iqtisodiyotining holati; tadbirkorlik muhiti; umumsiyosiy va umumiqtisodiy holat.

Bir guruh mualliflar ham kichik biznesning omillari sifatida tashqi va ichki manbalarni ajratib tadqiq etgan. Tashqi omillarga psixologik, tabiiy-geografik, texnologik, ekologik, axborot va xalqaro mezonlar kiritilgan. Ichki omillar tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va texnologik manbalarni o'z ichiga oladi.

A.Aydinova kichik biznesga ta'sir qiluvchi omillarni agrar sektor nuqtayi nazaridan o'rgangan. Tadqiqotlarida kichik biznes omillarini uch guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya etgan: tadbirkorlik uchun umumiy omillar; kichik biznesga ta'sir qiluvchi omillar; qishloq joylaridagi kichik biznesga ta'sir qiluvchi omillar. Shunday bo'lsa-da, muallif omillarni yirik ikki guruhga – ichki va tashqi omillarga birlashtirgan. Ichki mezonlarga tashkiliy-huquqiy, texnik-texnologik, ijtimoiy-ruhiy, ekologik kabi xo'jalik subyekti va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar guruhi kiritilgan. Tashqi omillar esa, tabiiy-iqlim, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy-geografik, infratuzilma va bozor mezonlarini o'z ichiga oladi.

R.G.Dobrov kichik biznes omillarini makro va mikro daraja muhiti manbalariga ajratgan. Makro daraja omillariga mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish holati, qonunchilik tizimi, siyosiy muhit, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va tartibga solish tizimi, mamlakat va hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, madaniyat va ta'lim, ilmiy-texnik va texnologik muhit, ijtimoiy muhit, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi kiritilgan. Mikro darajadagi omillar guruhiga tadbirkorlik faoliyati uchun ta'sir qiluvchi bevosita omillar sanab o'tilgan. Ularni iqtisodiy, ishlab chiqarish, kadrlar, tashkiliy va boshqa omillarga bo'lib o'rganilgan.

L.S.Rujanskaya, T.A.Tichinskaya, A.A.Sherbinina tadqiqotlarida yuqoridagilardan farqli o'laroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ta'sir qiluvchi omillarni an'anaviy tarzda tadqiq etishgan. Jumladan, ular taklif va talab omillariga to'xtalib o'tishgan.

Shuningdek, tadqiqotlarda kichik biznes rivojlanishini ta'minlovchi omillar sifatida talab omilining ayrim jihatlari e'tibor qaratiladi. Bunda mintaqadagi talab hamda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi kichik biznesning rivojlanish omillari, deya qayd etilgan.

U.Gofurov kichik biznes rivojlanish omillarini an'anaviy turlariga, ya'ni investitsiya, mehnat kabilarga e'tibor bergani holda, davlatning qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlariga to'xtalgan. N.Murodova ham omillar qatorida yuqoridagi kabi an'anaviy omillarni ko'rsatib o'tgan. Xuddi shunday omillar B.Shermuhammedov va M.Mirvaliyevlar tadqiqotlarida ham ko'rsatilgan.

Bir guruh mualliflar tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida innovatsiyalarni alohida ta'kidlab o'tishgan. Shuningdek, ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik omillarini quyidagi guruhlarga ajratadi: talab omillari (ichki va tashqi bozorlardagi talab darajasi); makroiqtisodiy omillar (solliqlar darajasi, iqtisodiy vaziyat, me'yoriy-huquqiy baza); moliyaviy omillar (moliyaviy resurslar, tijorat banklardagi hisob stavkalar); ichki omillar (malakali ishchi kuchi, asbob-uskunalar va ularning eskirish darajasi, xomashyo materiallar).

Shuningdek, tadbirkorlik va biznes faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar qatoriga biznes yuritishning osonligi, qurilish ishlariga ruxsat berish, elektr bilan ta'minlanganlik, mulkni ro'yxatdan o'tkazish, kredit olish, investorlarni himoya qilish, solliqlarni to'lash, chegaralar orqali savdo qilish, shartnomalarni bajarish, to'lovga qobiliyatsizligini hal qilish kabilarni ham sanab o'tishgan. Shuni alohida ta'kidlaymizki, mazkur manbalar institutsional omillar bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar e'tibordan chetda qolmoqda.

XULOSA

Yuqoridagilar asosida xulosa qilsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ta'sir etuvchi omillarni ikkiga, tashqi va ichki turlarga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, respublikada kichik biznesga ta'sir etuvchi tashqi omillarga quyidagilarni kiritamiz: tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda iqtisodiy-ijtimoiy siyosat. Ichki omillarga mehnat, investitsiya, iste'mol va infratuzilma kabilarni kiritamiz. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tashqi omillar sifatida quyidagilarni sanab o'tamiz. Siyosiy-huquqiy omillar: respublika va mahalliy hokimiyat tomonidan ishlab chiqilgan mintaqani rivojlantirishga qaratilgan dasturlar; institutsional omillar: mintaqani infratuzilma faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq mahalliy hokimiyat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar; ekologik omillar: tabiiy resurslar hamda mavjud xomashyo va ularning ishlab chiqarishga jalb etish bilan bog'liq chora-tadbirlar. Ichki omillarga esa, viloyatda mavjud ishchi kuchi, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bo'lgan muhandislik va ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassislar, ichki va tashqi investitsiya, tijorat banklarining mavjudligi va ularning kredit resurslari, qo'shni respublika bilan bog'lovchi hudud kabilarni kiritamiz.

Shuni alohida ta'kidlaymizki, tashqi omillar asosan ichki omil va manbalarning samarali bandligini ta'minlaydi. Shuningdek, tashqi omillar kichik biznesning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini belgilab bersa-da, ichki omillar faoliyat turini hamda sohaning ixtisoslashuv darajasini ta'minlaydi.

ADABIYOTLARRO'YXATI

1. Пискун Е.И., Брусникин К.Н. Развитие предпринимательских структур в современных условиях экономики России: тенденции и факторы влияния // Сервис в России и за рубежом. 2019. Т. 13. Вып. 2. С. 54-68. DOI: 10.24411/1995-042X-201910206; Стратегии развития предпринимательства в современных условиях: сборник научных трудов IV национальной (с международным участием) научно-практической конференции. Санкт-Петербург 23–24 января 2020 г. – СПб. : Изд-во СПбГЭУ, 2020. – 391 с.
2. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi O'RQ-683-son qonuni.
3. Лино Маркес Коимбра. Теоретико-методологические основы предпринимательства и его значение в развитии экономики Мозамбика // Вестник ТГУ, выпуск 3 (143), 2015.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития [Электронный ресурс]. – М.: Директмедиа Паблишинг, 2008.
5. Кейнс Д.М. Общая теория занятости, процента и денег. М.: Гелиос АВР, 2002.
6. Загоруйко И.Ю. исследование развития и оптимизации малого предпринимательство в России в условиях мирового кризиса // Вестник Пермского университета. 2012, №3.
7. Кузубов А.А., Каба В.О., Чжан Ц. Основные аспекты государственной поддержки в развитии малого и среднего бизнеса России и экономически-развитых стран // Карельский научный журнал. – Т. 7. № 2(23). 2018. С.67-71.
8. Алисов А.Н. Управление развитием малого предпринимательства в регионах России: монография. – М.: МАКС Пресс, 2013. 175 с.
9. Karimova K., Sharifxodjaeva K. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat iqtisodiy tayanchi // "Xalqaro moliyavahisob" ilmiyelektronjurnali. 2017, №1, fevral.
10. Энхчимэг О. Банковское кредитование малого и среднего бизнеса в Монголии: проблемы и решения // О.Энхчимэг, О. Ю. Оношко // Известия Иркутской государственной экономической академии. – Т. 25. 2015. – С.1070-1078.